



Parvina OLIMZODA,

*Mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston
O'qituvchi, PhD, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti*

PhD B. Yunusova taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek va ingliz xalq maqollarining qiyosiy-tipologik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ularning milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda maqollarning lisoniy va madaniy xususiyatlari, shuningdek, ularning semantik, grammatik va pragmatik jihatlarini qiyosiy o'rganiladi. Maqolada ingliz va o'zbek xalqlarining dunyoqarashi, qadriyatlarini hamda hayotiy tajribalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniq misollar (masalan, sog'lik va boylik, guruh ichidagi birdamlik mavzulari) yordamida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, matal, xalq og'zaki ijodi, qiyosiy tahlil, milliy mentalitet, lingvokulturologiya, semantik model, pragmatika, ingliz tili, o'zbek tili, paremiologik birlik.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦ

Аннотация

Данная статья посвящена сравнительно-типологическому анализу узбекских и английских народных пословиц, а также освещению их роли в выражении национального менталитета. В исследовании в сопоставительном аспекте рассматриваются лингвистические и культурные особенности пословиц, а также их семантические, грамматические и прагматические характеристики. В статье на конкретных примерах (в частности, на темах здоровья и богатства, а также внутригрупповой солидарности) показаны сходства и различия в мировоззрении, ценностях и жизненном опыте английского и узбекского народов.

Ключевые слова: пословица, поговорка, устное народное творчество, сравнительный анализ, национальный менталитет, лингвокультурология, семантическая модель, прагматика, паремиологическая единица.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH PROVERBS

Annotation

This article is devoted to the comparative-typological analysis of Uzbek and English folk proverbs and highlights their role in expressing national mentality. The study comparatively examines the linguistic and cultural features of proverbs, as well as their semantic, grammatical, and pragmatic characteristics. Using specific examples, particularly those related to health and wealth, as well as intra-group solidarity, the article demonstrates the similarities and differences in the worldview, values, and life experiences of the English and Uzbek peoples.

Keywords: proverb, saying, folklore, comparative analysis, national mentality, linguoculturology, semantic model, pragmatics, paremiological unit.

Kirish. Xalq og'zaki ijodining muhim va faol janrlaridan bo'lgan maqollar tilshunoslik hamda folklorshunoslik fanlarida tadqiq etilayotgan yetakchi mavzular sirasiga kiradi. Folklorning eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqollar har bir xalqning asrlar davomida shakllangan hayot tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan lingvistik birliklardir. Ular milliy mentalitetni ifodalovchi muhim til omili sifatida qaraladi. Ingliz va o'zbek maqollarini qiyosiy o'rganish orqali ushbu ikki xalqning fikrlash tarzi, ijtimoiy munosabatlari hamda madaniy farqlarini aniqlash mumkin.

Ingliz maqollarida individualizm, vaqtni qadrlash, shaxsiy mas'uliyat va aniqlik kabi tushunchalar ustuvor hisoblanadi. Masalan, "Time is money", "God helps those who help themselves" kabi maqollar ingliz xalqining amaliy va ratsional fikrlashini aks ettiradi.

O'zbek maqollarida esa jamoaviylik, sabr-toqat, hurmat, mehnatsevarlik va insoniy munosabatlari muhim o'rin egallaydi. "Birlik bor joyda – tiriklik bor", "Sabr qilgan – murodga yetar" kabi maqollar xalqning axloqiy qadriyatlarini va

ijtimoiy hayotini ifodalaydi. Shu jihatdan qaralganda, ingliz va o'zbek maqollari milliy mentalitetni farqlovchi lingvistik omil bo'lib, ular til orqali xalqning madaniy o'ziga xosligini namoyon etadi. Maqollar nafaqat nutqni boyitadi, balki millatning ruhiy qiyofasini anglashda muhim manba hisoblanadi.

Maqol va matal, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o'stiradi, ularni to'g'riso'z, rostgo'y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishiga o'rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarini targ'ib etadi. Shuningdek, yozuvchi, shoir va notiqning so'z boyliklarini orttiradi, ularning asarlarini badiiy jihatdan g'oyat ta'sirli qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek xalq maqollari ko'pincha maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi va otalar so'zi atamalarini bilan el orasida mashhur. Ko'pincha ilmiy uslubda maqol atamasi iste'moldadir. Maqollar o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar

og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko'p uchraydi. Chunki har bir xalq hayoti va tarixida juda ko'p o'xshashliklar, umumiyliklar mavjud [1].

Badiiy nutqni, uning lingvo-badiiy-estetik sifati va ta'sir darajasini o'rganishning ilk ko'rinishlari sifatida keyingi vaqtlarda lingvopoetik talqinlar uchun asos vazifasini o'tagan sof lingvistik talqinlar davr talabi va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ilmiy maqsadlarni qo'ygan edi. Bu tadqiqotlarda tilning ekspressiv emas, balki kommunikativ vazifasiga urg'u berilgan. Til fikrning bo'laklangan tarzda voqelanishi, fikrda esa tushunchalar o'zaro bog'lanadi. Ammo til tushunchalarining mantiqiy munosabatlariga asoslangan grammatik yaxlitliklar emas, balki ularda botiniy tabiiatli shaxsiy munosabat ham o'z aksini topgan bo'ladi. So'zlovchi faqat fikr ifodalash, axborot berish va tinglovchiga ta'sir qilish vazifasining bajarilmaydi, balki so'zlovchining kimligini, uning maqsadini, shuningdek, o'zining munosabatini ham ifodalaydi [2]. Shu tarzda badiiy nutqda uning dunyoqarashi, borliqqa va o'z fikriga munosabati, ijtimoiy psixologiyaning parchasi sifatidagi shaxsiy mentaliteti grammatik va mantiqiy omillar hamda aytuvchining badiiy-estetik maqsadi bilan uyg'unlashib ketadi.

Ingliz xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari singari g'oyat mukammal va xalq og'zaki ijodining eng ko'p qo'llaniladigan janrlaridan biri hisoblanadi. Ingliz xalq maqollarini o'rganilish tarixi juda muhim va qadimiydir. Ingliz tilida maqol adabiyot, sotsiologiya, antropologiya, dialektologiya, folklorshunoslik kabi fanlarning obyekt sifatida o'rganilib kelingan. Maqollarda insonlarning kundalik hayotdagi barcha muammolar, masalalar o'z aksini topgan.

O'zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari ham folklorning eng keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ko'pincha tuzilishi, folklorida o'rganilishi va yana boshqa jihatlari bilan o'zbek maqollariga o'xshash holda umumiy jihatlarni ko'rsatadi.

Lisoniy imkoniyatlarning badiiy nutqda voqelanishi ham umumfalsafiy xarakterga ega bo'lgan imkoniyat va voqelik dialektikasining xususiy ko'rinishidir. Imkoniyat va voqelik dialektik falsafaning muhim kategoriyalaridan, u o'zining tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalari doirasida universal qonuniyat ekanligi bilan har qanday ilmiy bilish jarayonida metodologik asos vazifasini o'taydi. Borliqni estetik idrok etish va paremalarni qo'llash san'atiga lingvokulturologik yondashuv natijasida badiiy tafakkur mexanizmini ochish, badiiy nutqning shakllanishi, uning badiiy hamda lingvoestetik ta'sir darajasini ochib beruvchi tavsivaviy xususiyatli tadqiqotlar yaratilayotganligi e'tiborga molik.

Maqollardan xalq tiliga doir boy lingvistik birliklardan qiyosiy dalil sifatida foydalanish tajribasi XI asrning yirik tilshunosi Maxmud Qoshgariy nomi bilan bog'lanadi. Jumladan, uning «Devonu lug'otit turk» asarida avlodan avlodga o'tib yurgan qo'shiq, maqol va xalq hikmatlarining o'z aksini topishi buning yaqqol misolidir [3]. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham tilimizda ishlatilmoqda.

Maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun maqoldan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan.

Adabiyot, falsafa, til va badiiy ijodning o'ziga xos qorishiq hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari va matallari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan muhim janridir. Ularning har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz ichki nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz boyligini, mantiqan chuqurligini hayratomuz bir qudrat bilan namoyon

etadi. Bunday falsafiy badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining, milliy qadriyatlarining yorqin ko'zguisidir.

Maqollar mantiqiy fikrlashning mahsuli bo'lishi jihatidan umuminsoniy hodisa bo'lsa ham, har bir xalqning o'ziga xos yashash sharoiti, tarixiy rivojlanishi, dunyoqarashi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bu mantiqiy xulosalarining ifodasi bo'lmish paremalar mazmuni, intonasiyasi, tuzilishi, ifodalanishi jihatidan milliy xususiyatga ham ega bo'ladi [4].

Tadqiqotchi M.Qosimova maqol va matal borasidagi fikrlarni o'rganib, ulardagi nazariy qarashlarni quyidagicha umumlashtirishga harakat qiladi: «Grammatik jihatdan tugallanganlik muammosi maqol va matallarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Bu masalada ham turlicha qarashlar mavjud bo'lsa-da, asosan, maqollar tugallangan fikrni ifodalab, grammatik shakllangan gap tarzida; matallar esa fikr va muhokamaning tugal natijasini emas, balki uning elementlarini ifodalab, grammatik jihatdan to'la shakllanmagan birlik tarzida namoyon bo'ladi, degan fikr ancha barqarordir» [5].

«O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi» saytida berilgan matnda ham maqol va matallarning tabiati o'rinli tavsiflangan: «Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr, xulosa ifodalanadi. Matal xalq maqoli bilan ba'zi o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, lekin o'ziga xos jihatlari bilan undan farqlanib turadi. Bu tafovutlar quyidagilardir: maqollar nutqda yaxlit hukm sifatida qo'llanilsa, matallar hukmning qismi funksiyasini bajaradi; maqollarning tematik doirasi keng bo'lsa, matallar konkret temaga va qat'iy funksional qo'llanilishga ega; maqollar konkret shakliy tuzilishga ega bo'lsa, matallarda shakliy qat'iylik mavjud emas; maqollar ba'zan ko'chma, ba'zan o'z ma'nosida qo'llansa, matallar hamma vaqt ko'chma ma'no tashiydi» [6].

Tahlil va natijalar. Maqollar tugallangan fikrni bevosita ifodalaydi. Maqollar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab paremalarga bo'linadi. Maqollar tuzilishi jihatidan eng kami ikki elementdan (gap bo'lagidan) iborat bo'ladi va tugallangan fikr bildiradi. Bu fikrni bildiruvchi gap bo'laklari, odatda, bosh bo'laklar bo'ladi, lekin bosh bo'laklar: ega yoki kesim bo'lishi paremada ikki elementdan (gap bo'lagi) bo'lishi va ular ikki intonasion markazga ega bo'lishi mumkin. Bosh bo'laklarning bo'lishi yoki bo'lmasligiga qaramasdan, har bir gap bo'lagi bo'linishi shart. Maqollarni eng kami ikki mantiqiy markaz hosil qiladi. Bu mantiqiy markazni tashkil qiluvchi so'zlar bosh bo'lak vazifasida kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Sodda paremalar ikki va undan ortiq elementlardan (gap bo'laklaridan) iborat bo'ladi. Murakkab paremalar esa ikki va undan ortiq komponentlardan (qo'shma gaplar tarkibiga kiruvchi nisbiy sodda gaplarni bildiruvchi termin) tashkil topadi. Demak, maqollar gap bo'laklaridan iborat bo'lib, tugallangan fikrni ifodalaydi va maqollar tugallangan gap shaklida bo'lganligi uchun ular faqat kengaytirilgan gaplar orqali izohlanadi [7,10]. Masalan: Boylik sog'liqsiz hech narsadir / Health is more important than wealth.

Semantik jihatdan qiyos tahlil qilsak, o'zbekchada kategorik inkor mavjud: hech narsa. Maqolda kuchli, keskin hukm ifodalangan. Sog'liq bo'lmasa, boylik mutlaqo qiymatsiz, degan ma'no ifodalangan.

Inglizcha variantda esa, «more important than» - qiyosiy daraja bo'lib, boylik inkor qilinmaydi, faqat sog'liq undan ustun qo'yiladi. Demak, o'zbek variant absolyut inkor, inglizcha esa nisbiy ustunlik ifodalaydi.

Boylik sog'liqsiz hech narsadir grammatik jihatdan qiyos tahlil qilsak, ega – boylik, hol (inkor sharti) - sog'liqsiz (-siz qo'shimchasi), kesim - hech narsadir: Tuzilishi: Ega + -siz shakli + kesim.

Health is more important than wealth: Ega – Health, kesim - is more important, qiyos qismi - than wealth. Tuzilishi: Subject + linking verb + comparative adjective + than + noun.

Madaniy-pragmatik jihat tahlil qilsak, o'zbek tilida maqol shakli ko'proq didaktik, qat'iy nasihat ma'nosida, ingliz tilida esa fikr ko'proq ratsional qiyos orqali berilgan. Ikkala gap ham bir g'oyani - sog'liqning boylikdan ustunligini - ifodalagan. Biroq o'zbek tilida inkor orqali keskin ta'kid, ingliz tilida esa qiyos orqali mantiqiy ustunlik berilgan.

Xulosa. Maqollarni shakl jihatidan prozaik va poetik shakllari asosan qofiyalanib keladi. Masalan: Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi / Crows do not pick crow's eyes. Mazkur maqollar turli tipologik tizimlarga mansub bo'lgan o'zbek va ingliz tillarida uchraydi. Ushbu birliklar semantik jihatdan ekvivalent bo'lib, metaforik model asosida shakllangan barqaror paremiologik birliklardir. Ikkala maqolda ham subyekt - qarg'a (crow), harakat - ko'zni cho'qish (pick out), inkori - zarar yetkazmaslik. Bevosita ma'noda bir xil tur vakili o'z turiga zarar yetkazmasligi ifodalanadi. Maqolning asosiy semantik yadroviy ma'nosi guruh ichidagi birdamlik, ichki manfaat himoyasi, o'zaro fosh qilmaslik kabilarni ifodalaydi.

Semantik model quyidagicha ifodalanadi: Bir ijtimoiy guruh vakillari bir-biriga ochiq zarar yetkazmaydi. Bunda "qarg'a" konsepti salbiy konnotatsiyaga ega bo'lib, ko'pincha manfaatparast yoki axloqan shubhali kishilar guruhini bildiradi. Ushbu maqollarda "qarg'a" obrazi ikki lingvomadaniy takonda ham salbiy konnotatsiyaga ega bo'lib, ko'pincha makkorlik, manfaatparastlik yoki axloqiy jihatdan shubhali muhit timsoli sifatida talqin qilinadi. Pragmatik nuqtai nazardan, maqol kommunikativ vaziyatda bevosita ayblov yoki tanqidni yumshatish, bilvosita ishora orqali ijtimoiy hodisaga baho berish vositasi sifatida qo'llanadi. Ya'ni, nutq egasi aniq shaxsni emas, balki umumlashgan ijtimoiy guruhni nazarda tutadi va shu orqali konfliktini ochiq shaklda emas, implitsit tarzda ifodalaydi. Madaniy jihatdan esa mazkur maqol kollektiv ongda "guruh ichki birdamligi" fenomenini, ba'zan esa korrupsion yoki yopiq tizimlar doirasidagi o'zaro himoyani anglatadi. Demak, maqol nafaqat semantik birlik, balki ijtimoiy baholash va madaniy stereotiplarni ifodalovchi pragmatik vosita sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Keltirilgan fikr va misollardan ko'rinib turibdiki, maqollarning o'zbek va ingliz tillaridagi umumiy jihatlarinigina emas, balki ularni xususiy va qiyosiy jihatdan ham o'rganish tilshunoslik fanining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - Toshkent: O'qituvchi, 1990. - 368 b.
2. Винокур Г. О. О языке художественной литературы. - Москва: Высшая школа, 1991. - 448 с.
3. Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. -Тошкент: Фан, 1967. -543 б.
4. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984. -256 б.
5. Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): филол. фан. номз. ... дисс. - Тошкент, 2007. - 156 б.
6. <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-1/260-proverbs-sayings>.
7. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1985. - 144 б.
8. Ray, John. A Complete Collection of English Proverbs: Also, the Most Celebrated Proverbs of the Scotch, Italian, French, Spanish, and Other Languages. London: Printed for W. Otridge and others, 1817.p 308.
9. O'zbek xalq maqollari. (2005) Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
10. O'rinbayeva D. Folklor asarlari tiliga xos so'zlarning izohli lug'ati. -Samarqand, 2017. - b. 212.